

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

### 1. Loyihaning turi:

Fuqarolik shartnomasi. "Ta'lim muassasasini joriy ta'mirlash (pudrat) haqida".

### 2. Loyihaning nomi:

"Qarshi shahar xalq ta'limi bo'limi bilan "Sodiq maxsus qurilish ta'mirlash" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida shahar xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi binosida 566.929.838 (Besh yuz oltmish olti millon to'qqiz yuz yigirma to'qqiz ming sakkiz yuz o'ttiz sakkiz) so'mlik joriy ta'mirlash ishlarini bajarish to'g'risida"

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Qarshi shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri N.Samadova. 2022-yil 08-iyun.

Loyiha amaldagi O'zbekiston Respublikasining 29.08.1996-yildagi Fuqarolik kodeksi (II-qism), 666-685-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'RQ-670-I-conli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.1995-yildagi "Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-1154-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 15.02.2005-yildagi 63-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi Nizom va 31.01.2022-yildagi "Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 46-sonli Qarori talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qarshi shahar yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi boshlig'i**

2022-yil 09-iyun



U.Ablakulov

# PUDRAT SHARTNOMASI

2022 y. «09» 6

2022-342-4-69-XT-son

Qarshi shahar.

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritilgan Qarshi Shaxar xalq ta'limi bo'limi nomidagi Nizom asosida xarakat qiluvchi rahbari N.Samadova bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiluvchi "Sodiq maxsus qurilish ta'mirlash" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari A.Sharipov, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagi haqida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. "Pudratchi" mazkur shartnoma shartlariga ko'ra "Buyurtmachi" Qarshi shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli 26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab binosini joriy ta'mirlash ishlari uchun loyixa smeta xujjatlariga asosida 566.929.838 (Besh yuz oltmish olti millgon to'qqiz yuz yigirma to'qqiz ming sakkiz yuz o'ttiz sakkiz) so'mga bajarib berishni o'z zimmasiga oladi. "Buyurtmachi" esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi.

## 2. SHARTNOMA BUYICHA KELISHUV NARXLAR

2.1. «Buyurtmachi» tomonidan taqdim qilingan xujjatlarga asosan ta'mirlash ishlarining qiymati 566.929.838 (Besh yuz oltmish olti millgon to'qqiz yuz yigirma to'qqiz ming sakkiz yuz o'ttiz sakkiz) so'mni tashkil qiladi.

2.2. Loyixa smeta xujjatlariga asosan ta'mirlash ishlari shartnoma imzolangan kundan boshlanadi. Ta'mirlash ishlarining tugashi vaqti 31.12.2022-yil.

## 3. TA'MIRLASH ISHLARINI BOSHLASH BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.2-bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. Shartnomadagi 4.1-bandida ko'rsatilgan avansni «Pudratchi» olgandan so'ng ta'mirlash ishlarini boshlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi "Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-1154-sonli Farmoniga asosan barcha mulkchilik shakllaridagi xujalik yurituvchi subektlarning iste'molchilar va buyurtmachilarga, agar ular yetkazib beriladigan (bajariladigan ishlar, xizmatlar) qiymatining kamida 30 foizini oldindan amalga oshiriladi. "Pudratchi" shartnomaning mazkur bandiga amal qilishi shart.

3.3. «Buyurtmachi» tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga o'zi tomonidan xarid qilingan qurilish va ta'mirlash materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4. Ta'mirlashni to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.5. Ta'mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so'ng ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

## 4. TO'LOV SHARTI VA TARTIBI

4.1. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini boshlash uchun «Pudratchi»ga shartnoma narxining 30 % miqdorda oldindan to'lovni amalga oshiradi va bu oldindan to'lov "18" iyun 2022-yilda amalga oshiriladi. «Buyurtmachi» tomonidan yakuniy to'lov «Pudratchi» ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi xujjattaqdim qilgandan so'ng amalga oshiriladi. Yakuniy to'lovning miqdori so'mni, ya'ni kelishilgan summaning 70% foizini tashkil etadi va bu yakuniy to'lov amalga oshiriladi.

4.2. «Buyurtmachi» to'lovni pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

4.3. «Pudratchi» tashkilot tomonidan shartnomada ko'rsatilgan so'mmadan ortiqcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

## **5. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI**

- 5.1. Ta'mirlash ishlari yuqorida kelishilgan muddatda tugatish va foydalanishga topshiradi. Maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb qiladi.
- 5.2. Harxaftaning dushanba kunidajoriy xaftadabajarilganta'mirlash montaj ishlari tugrisidagi tegishli xujjatlarni «Buyurtmachi»ga taqdim qilishi shart. Agar ta'mirlash mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda pudratchining aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u xolda buyurtmachigaquyidagi tartibda jarima to'laydi:
- 5.3. Agarbajarilganishlaryoki ko'rsatilganxizmatlar sifati bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi ishlarni, xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, pudratchidan sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar va xizmatlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlar va xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.
- 5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar tug'risida 2-sonli dalolatnomani tuzadi.

## **6. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI**

- 6.1. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida ishlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun "buyurtmachi" "Pudratchi"ga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.
- 6.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini uz vaktida, belgilangan standartlarda va amaldagi qonunchilikka asosan qabul qilib oladi.
- 6.3. "Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq budjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofiq 2-sonli dalolatnomani «Pudratchi» bilan birgalikda tuzadi.

## **7. TOMONLAR O'RTASIDA SHARTNOMAVIY NIZOLARNIHAL ETISH**

- 7.1. Ushbu shartnoma asosida kelib chiqadigan xar qanday nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiliklari talablariga asosan sudlarida xal etiladi.

## **8.SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

- 8.1.Shartnoma tomonlar o'rtasida tuzilib, imzolangan va tegishli tartibda Geaznachilik bo'limidan ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amalda bo'ladi.

## **9. BOSHQA XOLATLAR.**

- 9.1. Tomonlar shartnoma majburiyatlari yuzasidan o'zaro hamkorlik qilib turadilar.

## **10. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

- 10.1.Shartnomada ko'rsatilgan 4.1 va 4.2-bandlari buzilsa, «Buyurtmachi»ning maxsus xisob-raqamidan o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

- 10.2.Ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, "Pudratchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

## **11. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar**

11.1. Vazirlar Mahkamasining 15.02.2005-yildagi 63-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomdagi talablarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida boshlangan yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlarini hal etiladi.

12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARIVA BANK REKVIZIT LARI

«PUDRATCHI»

Nomi: "Sodiq maxsus qurilish ta'mirlash" MCHJ

Manzil: Qarshi sh. Oromgox ko'chasi, 17-uy

Sh/r :20208000504773959001

STIR:301168200,QQS

MFO 01037

Bank:"Qishloqqurilishbank" filiali

Raxbar A.Sharipov



M.U. Tel.Raqam :+998903201201

«BUYURTMACHI»

Nomi:Qarshi shaxar XTB (markazlashgan)

Manzil: Qarshi shahar, "Gungon" mahallasi  
Bekrabod ko'chasi, 4-uy

Tel.: 75-225-12-17

Faks: 75-225-12-17

STIR:2071237778-9142581 MFO:00014

X/R: 401722860104017092100075005

Bank: Toshkent Shaxar Markaziy bank BB  
XKKM Qarshi Shaxar G'aznachilik bo'limi.

O'z.R.Moliya vazirligi G'aznachiligi

X/r:23402000300100001010

Raxbar: N.Samadova

M.U. Tel.Raqam(Faks) :75 225 2150



## Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni (davlat organi yoki tashkilotning nomi) xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

- pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;
- tovlamachilik qilish;
- pora sifatida pul to'lash;
- bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon (davlat organi yoki takshlotining nomi) xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

- korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni: 1066;
- Telegram-kanali ("<https://t.me/qshxt>");

(davlat organi yoki takshlotining nomi) rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

### TOMONLAR:

**Pudratchi:**

**"Sodiq maxsus qurilish ta'mirlash"  
MCHJ rahbari A.Sharipov**



**Buyurtmachi:**

**Qarshi shahar xalq ta'limi bo'limi  
mudiri N.Samadova**

